MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHDA AMALIY KOMPETENTLIKNING O‘RNI

Jaynarov Obid Shavkatovich
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida kadrlar salohiyatini oshirishda amaliy kompetentlikning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Jahonda va O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlar kontekstida amaliy kompetentlik rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari, motivatsion va refleksiv omillar o‘rganilgan. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida malaka oshirish tizimida olib borilayotgan zamonaviy usullar asosida bilimlarni amaliyotga joroy etish muammosi, hamkorlik asosida malaka oshirish jarayonini o‘rganish formatlari va kadrlar salohiyatini oshirishning integrativ yo‘llari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: amaliy kompetentlik, kadrlar salohiyati, malaka oshirish, kasbiy rivojlanish, refleksiv amaliyot, bilimlar transferi, peer coaching, motivatsion omillar.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamonaviy ta’lim talablariga mos, yuqori malakali va innovatsion fikrlashga ega pedagog kadrlarni tayyorlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirgan. Ushbu islohotlar, eng avvalo, ta’lim sifatini tubdan oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, pedagoglarning kasbiy mahorati va innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Bugungi kun ta’lim paradigmalari orasida pedagogning amaliy komptentligini uzluksiz rivojlantirish malaka oshirish tizimi oldiga qoyilayotgan katta vazifa xisoblanadi. Shularni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovasiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi 415-son qarori yuqorida keltirilgan muommolarni bartaraf etishga qo‘yilgan muhim qadamlardan hisoblanadi.

Mavjud ta’lim tizimining samaradorligini oshirish uchun an’anaviy formal ta’lim shakllari bilan birga informal ta’lim elementlarini ham samarali integratsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Formal ta’lim doirasida o‘quv jarayonlari rasmiy tartibda va belgilangan dastur asosida olib borilsa, informal ta’lim ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olishlari, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu ikki ta’lim shaklining uyg‘unlashuvi zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, pedagoglarning amaliy kompetentligini oshirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida ko‘rilmoqda.

Ventista va Brownlarning empirik tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhi shuni ko‘rsatdi: malaka oshirish dasturlarining faqat 29 foizida olingan bilimlar faoliyat davomida amaliyotda qo‘llaniladi [7]. Bu raqam kadrlar salohiyatini oshirishda amaliy kompetentlikka alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatuvchi asosiy ilmiy argument hisoblanadi.

Amaliy kompetentlikning mohiyati va kadrlar salohiyati bilan bog‘liqligi. Kadrlar salohiyati - bu xodimning bilim, ko‘nikma, tajriba, shaxsiy sifatlari va kasbiy fazilatlarining yaxlit majmuasi bo‘lib, u tashkilot yoki jamiyatning o‘z maqsadlariga erishishini ta’minlovchi inson resursi sifatida namoyon bo‘ladi. Salohiyatni oshirish faqat yangi bilim berish bilan chegaralanmaydi-bilimlarning kasbiy faoliyatga o‘tkazilishi ta’minlanmasa, hatto eng sifatli kurs ham samarasiz bo‘lish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘satadi.

Amaliy kompetentlik tushunchasi jahon mamlakat olimlari tomonidan kasbiy faoliyat, refleksiya, tajriba va shaxsiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Quyida olimlar tomonidan ilgari surilgan ta’riflar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

M.A.Axmedova “Amaliy kompetentlik - bu pedagogning nazariy bilimlarini real ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishi, o‘quvchi faoliyatini tashkil etish, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatidir” deb tariflaydi [10]. Bu ta’rif amaliy kompetentlikni bilimni amaliyotda qo‘llash va natija uchun javobgarlikni his qilish sifatida izohlaydi.

A.Qodirov “Amaliy kompetentlik - bu pedagogning nazariy bilimlarini ta’lim jarayonida qo‘llay bilishi va o‘quvchilarda samarali o‘quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati”. Muallifning fikricha, amaliy kompetentlik nazariy bilimni amaliy jarayonga tatbiq etish qobiliyatidir[11].

D.Kolbning “Experiential Learning” nazariyasiga ko‘ra, amaliy kompetentlik tajriba asosida o‘rganish sikli-konkret tajriba, reflektiv kuzatish, abstrakt kontseptuallashtirish va faol sinov bosqichlari orqali shakllanadi.

D.Scho‘n amaliy kompetentlikni mutaxassisning faoliyat jarayonida va undan keyin refleksiya orqali o‘rganish qobiliyati sifatida talqin etadi. Uning fikricha, professional “reflection-in-action” va “reflection-on-action” orqali o‘z amaliyotini takomillashtiradi[5].

V.I.Baydenko amaliy kompetentlikni kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etish va yangi sharoitlarda moslashuvchan yechim topa olish qobiliyati sifatida izohlaydi[12].

Bu olimlar amaliy kompetentlikni shaxsning o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil, maqsadli va mas’uliyatli qaror qabul qila olish imkoniyatini ta’minlovchi shaxsiy-ijodiy sifat deb baholaydilar. Ularning yondashuvi ekzistensial pedagogika kontekstida shakllangan bo‘lib, shaxsning ma’naviy mas’uliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

I.F.Isaev amaliy kompetentlikni o‘qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyatini o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida namoyon etuvchi faoliyat turi sifatida tavsiflaydi bu salohiyatning eng faol va namoyon ko‘rinishi hisoblanadi[13].

Weinert ta’rifiga ko‘ra, kompetentlik kognitiv, affektiv, motivatsion va ijtimoiy omillarning murakkab birligi sifatida namoyon bo‘ladi [8].

Shulman pedagogik predmetli bilimning (PCK) bevosita darsga tatbiq etilishini amaliy kompetentlikning asosiy ko‘rsatkichi deb belgiladi [6].

Zamonaviy tadqiqotlarda bu tushuncha yanada kengayib, refleksiv fikrlash, hamkorlik va raqamli ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oluvchi ko‘p o‘lchovli konstruktga aylandi.

Malaka oshirish jarayonida amaliy kompetentlikni rivojlantirish uch asosiy darajada amalga oshirilishi zarur: bilish (kognitiv daraja) - yangi bilim va tushunchalarni o‘zlashtirish; ko‘nikma (operatsional daraja) - bilimni aniq vaziyatlarda qo‘llay olish; tatbiq etish (transferiya daraja) - o‘rganilganlarni real kasbiy faoliyatda muntazam qo‘llash. Ko‘pchilik malaka oshirish kurslari birinchi ikki darajani qondirgani holda uchinchi darajaga -bilimlar transferiga - etarli e’tibor bermaydi.

Kadrlar salohiyatini oshirishda amaliy kompetentlikning psixologik-pedagogik asoslari. Malaka oshirish tinglovchilarining asosiy psixologik xususiyati shundaki, ular allaqachon shakllangan kasbiy tajriba va identifikatsiyaga ega shaxslardir. Shu sababli ularga nisbatan andragogik (kattalar ta’limi) tamoyillari qo‘llanilishi zarur. Knowles andragogikaning beshta tamoyilini asoslab berdi: o‘z-o‘zini boshqarish, tajribaga tayanish, muammoga yo‘nalganlik, darhol qo‘llash va ichki motivatsiya [4].

Motivatsion omil. Wang va boshqalar tadqiqoti bo‘yicha meta-tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi (SDT) doirasida uchta psixologik ehtiyoj - avtonomiya, kompetentlik hissi va aloqa - bir vaqtda qondirilganda kadrlar salohiyati o‘sishi statistik jihatdan sezilarli darajada kuchayadi [9].

Chiu izlanishlari shuni ko‘rsatadiki faqat tashqi motivatsiya (attestatsiya, sertifikat) asosida qurilgan tizimda ichki motivatsiya 23 foizga pasayishini aniqladi [2].

Refleksiv omil. Ko‘nig va boshqlarning tadqiqotida pedagogik bilimlarning motivatsion va o‘qitish o‘lchovlari faqat amaliy muhitda to‘liq rivojlanishi isbotlandi[3].Mohamed tadqiqotida

tanqidiy refleksiya darajasiga erishgan pedagoglar dars sifatini 38 foizga oshirishi sabalarini aniqladi.

Hamkorlik omili. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) nazariyasi kasbiy amaliy salohiyat ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali - hamkasblardan o‘rganish, birgalikda muammolarni hal etish yordamida - shakllanishini asoslaydi.

Joyce va Showers esa peer coaching (hamkasblik trenerlik)formatida bilimlarni kasbiy faoliyatga o‘tkazish 90 foizga etishini empirik jihatdan tasdiqladi [4].

Kadrlar salohiyatini oshirishning integrativ mexanizmi.Yuqoridagi omillarni birlashtirgan integrativ mexanizm uch darajali tizim sifatida tavsiya etiladi. Makro-daraja (tizim darajasi): O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli Qarori «Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori talablari asosida malaka oshirish standartlarini amaliy yo‘nalganlik tamoyiliga asosan yangilash; muassasalar bilan CPD memorandumlar tuzish; rahbariyatni strategik jalb etish.

Mezo-daraja (kurs darajasi): Guskeyning teskari loyihalash tamoyilini qo‘llash - avval o‘quvchilar natijalari, keyin mazmun belgilanadi; Individual rivojlanish yo‘li (IRY) tizimini joriy etish; ko‘chma mashg‘ulotlar, Lesson Study va peer coaching formatlarini majburiy komponent sifatida kiritish.

Mikro-daraja (mashg‘ulot darajasi): strukturalashtirilgan debrif sessiyalari; refleksiv kundalik; portfel asosida attestatsiya o‘tkazish kabi jarayonlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Piciuliauskiene va Kaminskienelar tadqiqotida psixologik xavfsizlik ta’minlanmagan muhitda tinglovchilarning 67 foizi yangi bilimlarni faqat ichki refleksiya darajasida qoldirib, kasbiy faoliyatga chiqarmasligi aniqlashgan [5]. Bu topilma kadrlar salohiyatini oshirishda psixologik muhit yaratish -xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi, tajribani baham ko‘rishga imkon beradigan muhit-amaliy kompetentlikning rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Malaka oshirish jarayonida kadrlar salohiyatini oshirishda amaliy kompetentlikning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bilim berish va salohiyatni oshirish o‘rtasidagi ko‘prik - bu amaliy kompetentlikning rivojlantirilishidir. Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Birinchidan, amaliy kompetentlik kadrlar salohiyatining eng faol va o‘lchanadigan ko‘rinishi bo‘lib, u bilish, ko‘nikma va tatbiq etish darajalarini birlashtiradi.

Ikkinchidan, malaka oshirish kurslarida faqat bilim berish emas, balki bilimning kasbiy faoliyatga o‘tkazilishini ta’minlaydigan pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish muhim: motivatsion ehtiyojlar, refleksiv mexanizmlar, hamkorlik formatlari va psixologik xavfsizlik muhiti.

Uchinchidan, integrativ uch darajali mexanizm (makro + mezo + mikro) amalga oshirilganda tinglovchilarning amaliy kompetentligi oshishi ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, kadrlar salohiyatini oshirishning barqarorligini ta’minlash uchun kursdan keyingi kuzatuv- «kechiktirilgan monitoring» - va portfel asosida attestatsiya tizimini joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli Qarori - Toshkent, 2024.

2. Chiu T.K.F. A self-determination theory (SDT) approach to technology-enhanced teacher digital competence development Computers & Education. -2024.

3. Ko‘nig J., Blo‘meke S., Jentsch A. Teachers pedagogical-psychological knowledge as a predictor of instructional quality Journal of Education. - 2024.

4. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education. - New York: Cambridge, 1980.

5. Piciuliauskiene P., Kaminskiene L. Continuing professional development in teachers: insights for designing a formative trajectory in scientific education Frontiers in Education. - 2025.

6. Scho‘n D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983.

7. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform Harvard Educational Review. - 1987.

8. Ventista O.M., Brown C. Teachers professional learning and its impact on students’ learning outcomes: Findings from a systematic review Sciences & Humanities Open. - 2023.

9. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification. -OECD: Paris, 2001.

10. Axmedova M.A. Pedagog amaliy kompetentligini rivojlantirish . Uzluksiz ta’lim. - 2022. - № 3. -B. 14-19.

11. Qodirov A. Pedagogning amaliy kompetentligi: mohiyat va shakllanish yo‘llari Ta’lim muammolari. - 2021. -№ 2- B. 45-51.

12. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования: методологические и методические вопросы. - Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. — 114 с.

13. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учебное пособие для студентов вузов. - Москва: Академия, 2004. - 208 с